

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**QADIMGI G'ARB MAMLAKATLARIDA
TIBBIYOTNING RIVOJLANISHI**

Tibbiyot institutlari talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent - 2009

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish kafedrası

«TASDIQLAYMAN»

O'zR SSV Ilm va o'quv muassasalari

Bosh boshqarmasi boshlig'i

Professor Sh.E.Ataxanov

«_____» _____ 2009 y.

**QADIMGI G'ARB MAMLAKATLARIDA
TIBBIYOTNING RIVOJLANISHI**

Tibbiyot institutlari talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent - 2009

Tuzuvchilar: TTA Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish kafedrası dotsenti, t.f.n., M.Dj.Maxsumov.

TTA Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish kafedrası katta o'qituvchisi M.M.Miyassarova.

TTA Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish kafedrası mudiri, t.f.d., professor A.S.Babadjanov tahriri ostida.

Taqrizchilar: Toshkent VMOI Sog'liqni saqlashni tashkillashtirish, moliyalashtirish va boshqarish kafedrasining professori, t.f.d., P.R.Menlikulov.

TTA Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish kafedrası professori, t.f.d., X.E.Rustamova.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Markaziy uslubiy hay'ati tomonidan ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan.

Majlislar bayoni №__, «__»_____ 2009 y.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Ilmiy Kengashi tomoniidan ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan.

Majlislar bayoni №__, «__»_____ 2009 y.

Annotatsiya

Ushbu o'quv - usluduy qo'llanma talabalarning Tibbiyot tarixi fanining bo'limlaridan biri bo'lmish Qadimgi G'arb tibbiyotining tarixiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu mavzu bo'yicha zarur bo'lgan nazariy bilimlar hajmini aniqlab beradi.

Mazkur o'quv - usluduy qo'llanmada Qadimgi G'arbning eng rivojlangan davlatlari bo'lmish Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim davlatlarida tibbiyotning vujudga kelishi, uning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarning faoliyatlari, tibbiyot olamiga olib kirgan yangiliklari haqida ma'umotlar aks ettirilgan.

O'quv - usluduy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy tibbiy ta'lim standartlarini hisobga olgan holda hamda 2008 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan Tibbiyot tarixi fanidan Namunaviy dasturga mos holda tuzilgan.

Ushbu o'quv – uslubiy qo'llanmasi Tibbiyot tarixi fanining yirik yo'nalishlaridan biriga bag'ishlangan bo'lib, unda mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni olib borishda zarur bo'lgan yangi interaktiv usullarga, mustaqil ishlarni bajarish tartibiga, test va nazorat savollariga keng o'rin berilgan.

Mazkur o'quv – uslubiy qo'llanmasi tibbiyot institutlarining davolash, tibbiy – pedagogika, tibbiy – profilaktika va stomatologiya fakultetlarining 1-2 kurs talabalari uchun mo'lgallangan.

1. Mavzu: Qadimgi G'arb mamlakatlarida tibbiyotning rivojlanishi.

2. Mavzuni asoslash: Yunoniston va Rim Ovro'pa hududida qadimda eng rivojlangan mamlakatlar edi. Ular boshqa mamlakatlarga nisbatan siyosiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan edi. Ushbu mamlakatlar hududida bir qator faylasuflar, madaniyat, san'at namoyondalari hamda tibbiyot olami vakillari etishib chiqdilar. Har bir shaharda o'zining tibbiyot maktablari vujudga keldi. O'sha zamonda Ovro'pa tibbiyotining rivojlanishida qadimgi Yunoniston va Rim tibbiyotlari muhim o'rin egalladi.

3. Yoritilishi lozim bo'lgan asosiy masalalar:

1. Qadimgi Yunoniston tibbiyoti.
2. Qadimgi Yunoniston ning tibbiyot maktablari va ularning buyuk namoyondalari.
3. Gippokrat va uning jahon tibbiyoti tarixidagi o'rni.
4. Qadimgi Rim tibbiyoti va uning buyuk namoyondalari.

4. Mavzuning mazmuni: Qadimgi Yunoniston eramizdan oldingi VI—IV asrlarda qator mayda quldorlik davlatlaridan iborat edi. Qadimgi Yunonistondagi o'ziga xos geografik va iqtisodiy sharoitlar madaniyatning rivojlanishida xalqning rolini yanada oshirdi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlandi. Tashqi dushmanlar ustidan qozonilgan g'alabalar, quldor aristokratiyaning mag'lubiyatlari madaniyat, ilm va falsafaning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Yunoniston va Rim Ovro'paning boshqa mamlakatlariga nisbatan siyosiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan edi. Ushbu mamlakatlar hududida bir qator faylasuflar, madaniyat, san'at namoyondalari hamda tibbiyot olami vakillari etishib chiqdilar. Har bir shaharda o'zining tibbiyot maktablari ochilib, ularda bo'lg'usi tabiblar o'qitila boshlandi. Bunday xolat esa o'z navbatida tibbiyotda yangi davolash va tashxis qo'yish usullarini paydo bo'lishiga zamin yaratdi. O'sha zamonda Ovro'pa tibbiyotining rivojlanishida qadimgi Yunoniston va Rim tibbiyotlari muhim o'rin egalladi.

Qadimgi Yunoniston tibbiyotini o'rganishda asosiy tarixiy manba' bu Gomerning «Iliada» poemasidir. Bu asarda asosan yunonlarning eramizdan avvalgi XII asrda (1193-1184 yillar) bo'lib o'tgan Troyan ostonasidagi jang tafsilotlari yoritilgan. Jumladan, yunon armiyasi tarkibida faoliyat yuritgan tabiblar haqida so'z borib, ularning yarador bo'lgan harbiylarga ko'rsatgan tibbiy yordamlari yoritib o'tilgan.

Ushbu poemada yoritilgan muhim bir rivoyatga ko'ra, ushbu urushda tibbiyot xudosi bo'lmish Asklepiy ham ishtirok etgan. Asklepiyning ikki qizi – Panakeya va Higieya, ikki o'g'li – Maxaon va Podaliriylar bo'lgan. Ular ham tabiblik bilan shug'ullanib, ushbu urushda qatnashganlar. Maxaon jarrohlik qilgan bo'lsa, Podaliriy ichki kasalliklarni davolagan (terapevt).

Rivoyatlarda aytilishicha, Asklepiyning otasi Apollon (Quyosh xudosi), onasi Kronida bo'lgan. Asklepiyni dunyoga kelishida onasining qornini yorib olish orqali olganlar. Bu usul hozirda Kesarcha kesish deyiladi.

Qadimgi Yunon tasviriy san'atida Asklepiy ilon o'ralib olgan xassaga tayanib turgan keksa yoshdagi kishi sifatida, qizi Higieya esa qo'lida ilon o'ralgan qadah ushlab turgan qiz sifatida tasvirlanadi. Ilon o'ralib olgan qadah tibbiyot ramzi sifatida qabul qilingan.

Higieyani salomatlik xudosi deb ataganlar. Shundan kelib chiqib, hozirda kasalliklarni oldini olish bilan shug'ullanuvchi fan «Gigiena» deb ataladi.

Panakeya esa turli kasalliklarga davo bo'luvchi dori tayyorlash usullari bilan shug'ullangan. Bunday dorilarni panatseya deb ataganlar. Ushbu so'z hozirda faqat ramziy ma'noda ishlatiladi. Maxaon va Podaliriylar to'g'risida deyarli ma'lumotlar etib kelmagan.

Qadimgi Yunon tibbiyotini o'rganishda «Gippokrat to'plami» asari muhim o'rin tutadi. Ushbu kitob eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yozilgan. Kitobni mashhur tabib Gippokrat boshlab berib, uni uning shogirdlari davom ettirganlar.

Qadimgi Yunositonda tibbiyot ikki yo'nalishda – amaliy tibbiyot va ibodatxona tibbiyoti yo'nalishlarida rivojlangan. Keyinchalik ibodatxona tibbiyoti o'z ahamiyatini yo'qotgan. Amaliy tibbiyot keng rivojlana boshlagan. Ushbu

yo'nalishning rivojlanishida Demokrit va Anaksimenes kabi buyuk yunon faylasuflarining ilg'or ta'limotlari katta rol o'ynagan.

Tabiblar o'zaro birlashib, ayrim shahar va o'lkalarda tibbiyot maktablarini barpo etadilar.

Kroton maktabi. Qadimda Kroton Yunoniston koloniyasi bo'lgan. Ushbu maktab olimlari inson organizmining masalasini aniq ishlab chiqqanlar. Ular asosan faylasuf Anaksimenesning «hamma narsani havo tashkil etadi» degan fikriga asoslanar edilar. Bu ta'limni tibbiyotga Alkmeon (eramizdan oldingi VI asrda yashab o'tgan) olib kirdi. Shu tariqa tibbiyotda «Pnevmatik nazariya» paydo bo'ldi. Alkmeon odam organizmi va uning barcha a'zolari shu pnevmadan kelib chiqadi, deydi. Bu pnevma o'zida turli qarama - qarshiliklarni chiqarib, shu qarama-qarshiliklar muvozanati buzilsa, kasallik paydo bo'ladi, deb hisoblaydi.

Alkmeon tajribali amaliy tabib edi. U anatomiya bilan ham shug'ullanib, birinchi bo'lib ko'rish nervini kashf etgan., Evstaxiy nayini topgan. Shuningdek, bosh miyani tekshirib, unda fikrlash va idrok etish xususiyati borligini aniqlagan.


Ushbu maktabning yana bir vakili bu Diogen bo'lib, u eramizdan avvalgi III asrda yashab o'tgan. U yurakning o'ng qorinchasida qon, chap qorinchasida bo'shliq, vena qon tomirlarida qon, arteriyalarda bo'shliqni ko'rgan. Shunga ko'ra u arteriyalarni «aera» deb atagan. Ushbu maktabning faoliyati ham tibbiyotni rivojlanishida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Knidos maktabi. Ushbu maktabga Evrifon asos solgan. Bu maktabdan bizning davrgacha «Ichki kasalliklar» nomli kitob etib kelgan. Bu maktab vakillari kasalliklar belgilarini sinchiklab o'rganganlar. Ular amaliy tibbiyotga yangi dorilardan ohak, tuproq va sarimsoq piyoz kabilarni kiritdilar. Ular ham «Pnevmatik nazariya» ga asoslanar edilar. Ular faqat «issiqlik» va «sovuqlikni» tan olganlar. Ushbu qarama-qarshilikning muvozanatdagi holatini «kraziya», muvozanatning buzilishini «diskraziya» deb ataganlar.

Ushbu maktab vakillari kasalliklarni rivojlanish yo'llarini (patogenezi) ishlab chiqqanlar. Ular kishi organizmidagi suyuqliklar odamning salomatligi va kasalligini belgilaydi, deb o'ylaganlar. Natijada patogen nazariyasi paydo bo'ldi.

Koss tibbiyot maktabi. Ushbu maktab Koss orolida tashkil topgan. Uning eng yirik vakili Gippokrat bo'lgan. Gippokratni tibbiyotning otasi, deb bilishadi.

Bu maktab praktik yutuqlarga erishgan. Jarrohlik uslublari yaxshi ishlab chiqilgan bo'lsa-da, Sushruta maktabi darajasiga eta olmagan. Ular churrani davolay olmaganlar va plastik operatsiyalarni bajara bilmaganlar.



Rasm 1. Gippokrat.

Gippokrat eramizdan avvalgi 460-377 yil Koss orolida tug'ilgan. Uning otasi – Geraklid tabib, onasi - Fenarata doya bo'lgan. Gippokrat uylanganidan keyin Afina shahriga ko'chadi. O'sha vaqtlarda Afina fan va madaniyat markazi bo'lgan. U erda ko'plab olimlar, tarixchilar, shoirlar, vrachlar yashaganlar. Bular mashhur tarixchi Gerodot, shoir Pindar, Dramaturglar Sofokl, Evrinid, Aristofan, haykaltaroshlar - Miron, Fidiy, Pachiklet va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Jahonda birinchi marta atom nazariyasini kashf etgan Demokritni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bundan tashqari, Anansagor, Protagor, Sokratni ham keltirish mumkin. Gippokrat bularning hammasi bilan tanishib, ularning dunyoqarashini o'rganadi. Unga ayniqsa Demokritning materialistik falsafasi zo'r ta'sir ko'rsatadi.

Gippokratning tabiblik va olimlik nazariyasi Demokritning materialistik qarashlariga asoslangan. Gippokrat uchun kasallik biron – bir ilohiy kuch yoki yovuz ruhning namoyon bo'lishi emas, balki moddiy substratlarning o'zgarishi natijasida organizmda hayotning namoyon bo'lishi edi. Uning fikricha, har bir kasallik o'zining tabiiy sababiga ega bo'ladi.

Gippokrat o'zining ilk tibbiy bilimlarini o'z otasi Gerakliddan o'rganadi. Gippokrat ko'p mamlakatlar bo'ylab sayohat qilgan. U Misr, Kichik Osiyo, O'rta dengiz mamlakatlari, Yunonistonning Qora dengiz qirg'og'laridagi mustamlakalari

bo'ylab yurib, u erdagi xalqlarning turmushini o'rgangan, ularning kasalliklarini sinchiklab tekshirgan. Jumladan, qadimgi skiflarning tibbiy bilimlari va davolash usullari Gippokratga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Shuning natijasida Gippokrat o'z mahorati va bilimini oshirgan. Gippokrat odamlarni tur toifaga ajratgan. Bu fikrini o'zining «Havolar, suvlar, mamlakatlar» degan kitobida bayon etgan. Bundan tashqari, u ««Aforizmlar», ««Prognostika» va ««Epidemiya»» degan asarlar yozgan.

««Epidemiya»» kitobida yuqumli kasalliklar haqida fikr yuritgan. Bu kitobda 42 kasallik tarixi keltirib, dunyoda birinchi bo'lib har kasalga kasallik tarixi varaqasini joriy etgan.

Gippokrat o'z dunyoqarashiga binoan materialist bo'lgan. Uning fikricha, hamma borliq atomdan iborat bo'lgan. Hayot esa atomlarning harakatidan kelib chiqadi, degan fikrda bo'lgan. Gippokrat kishilarning turmush tarzlarida o'zgarishlar bo'lishini, ularning ko'p yoki kam ovqat eyishiga, ichkilikka nisbatan qanday munosabatda bo'lishiga, mehnatni sevish yoki sevmasligiga e'tibor berishni tavsiya qilgan. Chunonchi, urf-odatlarining ham kishi sog'lig'iga ta'sir etishi ta'kidlanadi. Masalan, ba'zi xalqlarda chiroyli bo'lish maqsadida yosh bolaning boshini tang'ib qo'yib, kalla suyagini cho'ziq shaklga keltirishga harakat qilingan. Bu esa tibbiyot nuqtai-nazaridan miyalarning yaxshi rivojlanmasligiga va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelgan. Bu hol albatta ko'p holatlarda nasliy kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Umuman kasalliklarning kelib chiqishi masalasida Gippokrat boshqa yunon tabiblari singari «kraziya» (organizmdagi qarama-qarshi kuchlarning muvozanatda bo'lishi) va ««diskraziya»» (shu muvozanatning buzilishi) nazariyalariga asoslangan.

Gippokratning fikricha, har xil temperamentli kishilarga bo'lingan odamlar turli kasalliklarga nisbatan sezgir bo'ladilar. Masalan, flegmatiklar quruq va issiq kunlari o'zlarini yaxshi his etib, qor-yomg'irli kunlarda esa yomon his etadilar. Xoleriklarning iqlimi quruq bo'lgani uchun ular havo nam bo'lganda o'zlarini yaxshi his etib, quruq va issiq haroratga chiday olmaydilar. Melanxoliklar kasalliklarga tez-tez chalilib turishadi. Sangviniklar eng chidamli toifadagi

odamlar hisoblanadi. Gippokratning fikricha, bu xususiyatlar inson organizmini u yoki bu kasallikka moyilligini belgilaydi. Kasalliklarning aniq sabablari kishining ichki va tashqi sharoitidadir. Shuningdek u kasallik kelib chiqishida hayotdagi salbiy hodisalar va ovqat ham muhim o'rin tutishini ta'kidlab o'tadi.

Gippokrat tashqi muhit va turmush sharoitlarini salomatlikga ta'siri to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. U ba'zi odamlarda kasallikni kelub chiqishida yil mavsumi, havo harorati, iqlim, tuproq va suv xususiyatlarining ahamiyatini aytib o'tadi.

Gippokrat tibbiyotga yangi prognostik bo'limini kiritdi. Tabiblar o'z tadbirlarini shunga karab belgilaydilar. U shifokorlar qasamyodini kiritgan. Shuningdek, tibbiyot bo'yicha eng yirik asari “«Gippokrat to'plami» hisoblanib, har bir vrach uchun asosiy qo'llanma bo'lgan. Gippokrat «“davolashdan oldin o'ylab ko'r, davolayman deb zarar etkazma» degan dono iborasi tibbiyotda davolovchi shifokorlar uchun shior bo'lib qolishi kerak.

Bundan tashqari g'ippokrat quyidagi maxsus davolash tamoyillarini ishlab chiqqan:

1. Bemorga faqat foyda keltirish, uning tanasiga zarar etkazmaslik.
2. Qarama-qarshilikni qarama-qarshilik bilan davolash.
3. Organizmning o'z tabiatiga yordam berish.
4. Bemor tanasi va uning kuchini asrash.

Katta yoshdagi insonlarning kasalliklari bilan bir qatorda Gippokrat pediatriya bilan ham shug'ullangan. Gippokrat tepki kasalligini tavsiflab o'tadi. Shuningdek, u yangi tug'ilgan chaqaloqlar va emizikli bolalarning kasalliklariga alohida e'tbor qaratadi. Gippokratning pediatrik fikrlari qadimgi tibbiyot (Efeslik Sorana, Oribaziya), o'rta asr ovro'pa tibbiyoti (Salerna maktabi), Sharq xalqlari tibbiyoti (Ar-Roziy, Ibn Sino va boshqalar) va yuksalish davri tibbiyoti vakillari faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Gippokratning ijodiga mansub eng yirik asarlardan bu – «Gippokrat to'plami» bo'lib, u 72 ta turi xajmdagi kitoblar va maqolalardan iboratdir. Bundan

tashqari, uning «Epidemiyalar», «Prognostika», «Aforizmlar», «Chiqqan – singanlar» va boshqa asarlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Gippokrat umrining oxirida Fessaliyaning Larissa shahrida yashagan va shu erda vafot etgan (eramizdan oldingi 370 yil).

Shuningdek, quyidagi olimlar ham Qadimgi Yunoniston tibbiyotida o'zining muhim o'rniga ega bo'lib, ushbu sohaning rivojlanishiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar.

Platon (eramizdan oldingi 428-374 yillar). Dunyoqarashi bo'yicha idealist edi. Platon «Inson hayotini ruh boshqaradi, u aqliy, hayvoniy va o'simlik ruhlaridan iborat» degan fikrni ilgari suradi. Aqliy ruh bosh miyada, hayvoniy ruh yurakda va qonda, o'simlik ruhi jigarda bo'ladi, deb hisoblaydi. Olim kasalliklarni kelib chiqishini ruhlarga bog'laydi. Kasalliklarning sabablariga u falakdan yuborilgan jazo, dorilar hech qanday ahamiyatga ega emas, faqatgina turli rusumlar, musiqlar davolashi mumkin deb o'ylar edi.

O'zining «Timey» asarida Platon tibbiyotga yaqin bo'lgan masalalarni yoritib o'tadi. «Timey» asarida Platonning idealistik qarashlari to'liq aks ettirilgan. Asarda Platon pnevma va ilohiy kuch haqidagi ta'limotni yanada rivojlantirdi.

Platon o'zining sinfiy quldorlik qarashlaridan kelib chiqqan holda, kambag'allar va qullarni faqat engil kasalliklarda davolab, og'ir kasalliklarda «ular uchun o'lim yahshi» deb qaragan. Shunday qilib, Platon tibbiyotda reaksiya oqimlarning asoschisi bo'lgan.

Aristotel (eramizdan oldingi 384—322 yillar). Platonning o'quvchisi bo'lib, o'z davrining ko'zga ko'ringan olimlaridan bo'lgan. Uning otasi tabib bo'igani uchun, boshqa dunyoviy bilimlar qatorida tibbiy bilimlarni ham o'rgangi. Aristotel o'z asarlarini fizika, zoologiya, falsafa, tarix kabi sohalarga bag'ishlaydi. Aristotel ham materialistik, ham idealistik dunyoqarahlarga ega edi.

Pifagor (571 – 497). Samos shahrida tug'ilib, 18 yoshida ushbu shaharni dunyoni aylanib chiqish maqsadida tark etadi. Pifagor turli olimlar, donishmandlar bilan uchrashadi va Misrga etib kelib, u erda 22 yil yashaydi. Qadimgi Yunoniston da o'z davrining etuk olimlaridan biri bo'lgan. U buyuk faylasuf va matematik

bo'lishi bilan bir qatorda, tibbiyot ilmi bilan ham shug'ullangan. U idealistik dunyoqarashga ega bo'lib, ibodatxona tibbiyotining tarafdori bo'lgan. Inson organizmini tana va ruhga bo'lgan, dori – darmon bilan davolashni rad etgan. Misrni Fors shohi Kambiz zabt etgach, Pifagor Vavilonga ko'chib o'tadi va u erda 12 yil davomida ijod qiladi, so'ngra o'zining ona shahriga qaytadi.



Rasm 2. Pifagor tasviri aks ettirilgan tanga.

Empedokl (eramizdan oldingi 490-430 yillar). Empedokl faylasuflik bilan bir qatorda tibbiyot bilan ham shug'ullangan. U Sitsiliya orolida o'zining «Sitsiliya tibbiyot maktabi»ga asos soladi. Empedokl odamning ruhi uning qonida bo'iadi va shuning uchun odamlar o'z qoni bilan fikrlaydi, degan fikrni ilgari suradi. Kasalliklarning sabablari, rivojlanishi, davolash masalalarida u ibodatxona tibbiyotining tarafdori bo'lgan.

Qadimgi Rim tibbiyoti.

Oadimgi Rim davlatida quldorlik tuzumi to'liq va yakuniy rivojlanish shakliga o'tgach, tibbiyotning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Davlatning rivojlanishi natijasida doimiy armiya barpo etildi. Rim legionlarining uzoq yurishlarda jangovar holatini saqlab turish hamda ularga janglar vaqtida jarrohlik yordamini ko'rsatish maqsadida yangi harbiy hospitallar tashkil etildi. Bizning kunlarga ba'zi bir sanitariya inshootlarining (vodoprovod, kanalizatsiya, hammomlar) izlari saqlanib qolingan. Qadimgi Rim qonunlarida sanitariya yo'nalisdagi qonunlar ham bor edi. Rim imperatorligida arxiyatorlik (bosh tabib) lavozimi kiritilib, ular boshqa tabiblarning faoliyatini nazorat qilar edi.

Qadimgi Rim tibbiyotini o'rganishda mashhur tabib Klavdiy Galen va boshqa buyuk tabiblarning faoliyati va ijodlari muhim o'rin tutadi. Klavdiy Galen Qadimgi Rim vrachlari orasida eng mashhuri bo'lgan.

Klavdiy Galen (eramizdan oldingi 131-201 yillar). U Pergam shahrida arxitektor oilasida dunyoga kelgan. Galen falsafa va tibbiyotni chuqur o'rgangan. U yoshligida «Asklepion» deb nomlanuvchi kasalxona va tibbiyot maktabida o'zining ilk tibbiy bilimlarini o'rgandi. Iskandariya, Korinf, Smira shaharlarida bo'lib, etuk olimlardan ta'lim olib, o'zining tibbiy bilimlarini kengaytirdi. Iskandariyada 9 yil istiqomat qilib, yuksak bilimli tibbiyot olimi darajasiga etdi. Shundan so'ng u o'zining qadrdon shahri Pergamda gladiatorlar maktabida 4 yil davomida tabib sifatida faoliyat ko'rsatgan. Bu holat uning tajribasini ortishida katta turtki bo'ldi.



Rasm 3. Klavdiy Galen.

164 yilda Galen Rimga ko'chib kelganidan keyin imperator Mark Avreliy saroyida xizmat qiladi va uning vafotidan so'ng o'g'liga xizmat qiladi. U saroy xizmatidan bo'sh vaqtlarida anatomik va fiziologik tekshiruvlar olib borgan. Jumladan, u bo'shliq a'zolarining devori bir necha qavatdan tashkil topganligini aniqladi. Birinchi bo'lib tibbiyotda tajriba usulini tadbiq etdi. Ushbu usul orqali inson miyasining asosiy funktsiyalarini aniqlab berdi. Miyadan chiquvchi 7 juft va adashgan nervni topdi.

Rimda Galen odam anatomiyasini yarador bo'lgan gladiatorlarda, o'lgan go'daklarda, janglar vaqtida halok bo'lganlar tanasida hamda hayvonlarda o'rgangan.

Galen kasalliklarni kelib chiqishida gumoral nazariyaga asoslanib, har qanday kasallik quyidagi 4 davrni boshidan kechiradi, degan fikrni yuritadi:

1. Kasallikni boshlanishi.
2. Rivojlanishi.
3. To'liq rivojlanishi.
4. Kamayishi.

Galen dori tayyorlashda dorivor o'simliklarning shifobaxsh qismini ajratib olib, ulardan eritma, qaynatma va poroshok tayyorlashni ham ixtiro kildi. U shifobahsh osimliklarining turli qismlaridan eritmalar tayyorlashda ma'lum bir vazndagi va hajmdagi nisbatlarni aniqladi.

Galen shuningdek, kasallikni parhez bilan davolashga ham e'tibor qaratgan. Olim «Gerontologiya» fanining asoschisi hisoblanadi. U yoshi keksa insonlar organizmidagi o'zgarishlarni chuqur tekshirib, o'rgangan. Shu yoshdagi insonlar salomatligini saqlash va kasalliklarni davolashda o'zining parhez, gigienik tadbirlar va dorivor o'simliklar bilan davolash usullarini tavsiya qiladi.

Galen tibbiyot sohasida 200 dan ortiq asarlar yozgan. Shundan 140 tasi bizgacha etib kelgan. Galen organizmda rux borligini e'tirof etgan. U: ««Ruh organizmdagi barcha jarayonlarni idora qilib turadi. Agar organizm va ruh o'rtasida kelishmovchilik bo'lsa, kasallik kelib chiqadi», - deb gumoral nazariyani yoqlagan. Galen anatomiya fanini rivojlantirib, asosan, cho'chqa va maymunlarning qorin bo'shlig'ini yorib, tajriba o'tkazgan. Bunda u organizmdagi 2 xil to'qimani kashf etadi:

1. Muskul, pay, tomir va nervlar.
2. Jigar, o'pka, yurak.

Galen bir qancha yangi muskullariga, jumladan, orqa, bo'yin, umurtqa, ko'z, chaynov, hiqildoq, qo'l va oyoq panjalari muskullariga yaxshi ta'rif bergan. Galen miyadan chiqqan nerv tolalari miya moddasining o'zidan hosil bo'lishini birinchilardan bo'lib isbotlagan. Shuningdek, u ««nervus vagus» ning tolalarini o'pka va oshqozon sohalarida borligini aniqladi. Olim fiziologiya sohasida ham tekshirishlar olib borib, orqa miyani kesib, organizmdagi o'zgarishlarni batafsil

bayon etgan va orqa miyada sezuvchi va harakatlanuvchi nerv tolalari borligini tasdiqlagan. XIX asrga kelib Charlz Ber va Majandilar buni yana bir karra isbotladilar. Shu sababli ham Galen jahon tibbiyotiga o'zining klinik qarashlari bilan ilmiy-materialistik nazariya asosida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan. Galen 201 yilda Rim shahrida vafot etadi.

Asklepiad (eramizdan oldingi 131 – 56 yillar). U asli Yunonistonning Pruza shahrida tug'ilib, Afina va Iskandariyada ta'lim olgan va so'ngra Rim shahriga ko'chib kelib, umrining oxirigacha shu erda faoliyat yuritgan.


Asklepiad va uning maktabi Qadimgi Rim tibbiyotida ilg'or materialistik oqimni tashkil etdilar. Asklepiad ham Gippokrat singari atomistik nazariyaning tarafdori sanalgan. U ko'zga ko'rinmas mayda zarrachalar organizmdagi nozik naychalar orqali doimo harakatda bo'ladi degan fikrni yuritadi. Asklepiad kasalliklarning sababi sifatida atomlarning noto'g'ri joylashishi, ularning harakatini buzilishida degan fikrda bo'lgan.

Asklepiad odam a'zolarida atomlar harakatini tiklash davolashning asosiy maqsadi deb bilib, to'g'ri ovqatlanish, bemorlarga dori vositalarini kamroq berib, ochiq havoda ko'proq bo'lishni tavsiya etgan.

Asklepiad bemorni ishonarli, tez va azobsiz davolash kerak, deb hisoblaydi. U turar joylarda gigienaga rioya qilishni, tanani ozoda saqlashni, turli massaj usullarini qo'llashni tavsiya etadi. Asklepiad sayr qilish, yugurishni foydali deb bilar, edi. Uning tomonidan birinchilardan bo'lib traxeotomiya usuli ishlab chiqilgan edi. Asklepiad umrining oxirigacha tibbiyotdagi idealistik yo'nalish tarafdorlarining fikr ga qarashlarini rad etib keldi.

Korneliy Tsels (taxminan eramizdan oldingi 30 va eramizdagi 40 yillar). Yirik faylasuf va tibbiyot namoyondasi bo'lib, o'zidan falsafa, huquqshunoslik, qishloq ho'jaligi, harbiy yo'nalish, tibbiyot sohalariga bag'ishlangan 20 ga yaqin kitob qoldirgan. Ozining tibbiy asarlarida Korneliy Tsels gigiena, terapiya, jarrohlik va patologiya masalalariga oid o'sha davrga hos bo'lgan eng ishonchli bilimlarni jamladi. Korneliy Tsels tibbiyot atamalariga asos soldi. Jarrohlikga qon

tomirlarni bog'lash uchun ligaturani kiritdi, psixiatriyada esa u «deliriy» atamasining muallifi sifatida mashhur.



Rasm 4. Korneliy Tsels

Keng va boy dunyoqarashga ega bo'lgan Tsels o'z ichiga falsafa, huquqshunoslik, qishloq ho'jaligi, harbiy san'at, tibbiyot masalalarini aks etgan «Artes» deb nomlangan yirik entsiklopediyani yaratadi. Ushbu asarning faqatgina tibbiyotga bag'ishlangan 8 ta kitobdan iborat bo'lgan bo'limi («De medicina») saqlanib qolingani. Ularda asosan Gippokrat va Asklepiad asarlari hamda boshqa yunon manbalari asosida terapiya, jarrohlik, patologiya va parhez masalalari yoritilgan. Jarrohlik masalalarini yoritishda Tsels qisman o'zining tajribasidan ham foydalangan.

Lukretsiy Kar (eramizdan oldingi 99—54 yillar). Lukretsiy Kar Qadimgi Rimda materializm va ateizmning asosiy namoyondasi edi. Lukretsiyning materialistik atomizmi hamda biologiya va tibbiyotdagi qarashlari uning mashhur «Moddalarning tabiati haqida» poemasida keltirilgan. Ushbu poemada Lukretsiy atomistik ta'limotning asoslarini, materiyaning ko'rinmas mayda harakatlanuvchi zarrachalardan tuzilganligi, fizika va meteorologiyani ba'zi holatlari, biologiyani elementlari-hayvonlarning paydo bo'lishi, tananing tuzilishi va boshqa masalalarni ommabop tarzda tavsiflab o'tadi.

Lukretsiy tibbiyot masalalariga, hususan yuqumli kasalliklarning tarqalishiga ham atomistik ta'limotga asoslanib yondoshadi. Lukretsiy tabiatda ko'zga ko'rinmas mayda zarrachalar («urug'lar») mavjudligini tan olib, ularning ba'zilar kasallik keltirib chiqarishi mumkin, deb hisoblaydi. Bunday «urug'lar»

tuproqda chirish oqibatida hosil bo'lib, ular odamga bevosita muloqot yoki havo orqali o'tishi mumkin.

5. Mavzu bo'yicha mustaqil ishlarni bajarish. Mustaqil ishning asosiy maqsadi – talaba muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, talaba o'qituvchi rahbarligida yangi bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida bajara oladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishli:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Quyidagi mavzular bo'yicha talabalar mustaqil ishlarga tayyorlanishlari tavsiya etiladi:

1. Qadimgi Yunoniston dagi Kroton tibbiyot maktabi.
2. Qadimgi Yunoniston dagi Knidos tibbiyot maktabi.
3. Qadimgi Yunoniston dagi Koss tibbiyot maktabi.
4. Gippokrat va uning jahon tibbiyotida tutgan o'rni.
5. Pifagor va uning tibbiy qarashlari.
6. Empedokl va uning tibbiy qarashlari.
7. Platon va uning tibbiy qarashlari.
8. Asklepiadning Qadimgi Rim tibbiyotida tutgan o'rni.
9. Korneliy Tsels va uning tibbiy qarashlari.
10. Klavdiy Galen va uning jahon tibbiyotida tutgan o'rni.

6. Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulot davomida quyidagi interaktiv usullarning qo'llanilishi tavsiya etiladi.

«Akvarium» usuli». Guruhdan ixtiyoriy ravishda 3 kishi tanlab olinadi. Bular auditoriyaning o'rtasidan joy oladilar – go'yoki «baliq», qolganlar esa kuzatuvchi bo'lishadi. Shu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10-15 minut davomida birgalikda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa davradagi o'rtoqlarining to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarini yozib borishlari kerak.

Avval «baliqlar» versiyasi taklif etiladi, uni kuzatuvchilar muhokama qilishadi, keyin kuzatuvchilar o'z versiyalarini taklif etishadi, shu versiyalardan eng yaxshisining muallifi o'z versiyasini taklif etmagan talaba o'rniga kichik guruhga o'tadi.

Usulning quyidagi afzalliklari mavjud:

- mavzu birgalikda muhokama qilinadi;
- usul mavzuni qismlarga ajratishga imkon beradi;
- talabalar bilimlarini tekshirishga imkon beradi;
- munozara olib borish malakasi rivojlanadi;
- mashg'ulot o'yin ko'rinishida o'tkaziladi;
- har bir talaba ishtirok etadi.

«Aylanma stol» usuli. Bu usul talabalarda mantiqiy fikrlash faoliyatini yanada rivojlantiradi, amaliy mashg'ulotda olgan ma'lumotlarni mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu usul talabalarining olgan bilimlarini joriy baholashda qo'llanilishi mumkin.

O'qituvchi tomonidan talabalar ikki kishilik kichik guruhlariga bo'linadi va har bir kichik guruhga savollar yozilgan varaqa tarqatiladi va javob berish uchun ikki minut vaqt beriladi, so'ngra varaqani boshqa kichik guruhga uzatiladi va boshqa kichik guruhdan navbatdagi savol yozilgan varaqa olinadi va shu tarzda davom ettiriladi. Shunday qilib, agar oltita kichik guruh bo'lsa, o'qituvchi oltita savol tarqatadi va yakunda varaqada oltita javob bo'lishi kerak. 12 minutdan so'ng o'qituvchi barcha varaqalarni yig'ib oladi, ko'rsatilgan javoblarni tahlil qiladi va har bir kichik guruhga ball qo'yadi.

Usulning quyidagi afzalliklari mavjud:

- mavzu kichik guruhlarda muhokama qilinadi;
- talabalar bilimlarini tekshirishga imkon beradi;
- munozara olib borish malakasi rivojlanadi;
- mashg'ulot o'yin ko'rinishida o'tkaziladi;
- o'qituvchi har bir guruhni faol ishtirok etishini nazorat qiladi.

7. Nazorat savollari:

1. Asklepiy va uning avlodlarining tibbiyotda tutgan o'rni kanday?
2. Qadimgi Yunoniston ning tibbiyot maktablari, ularning pasosiy yunalishlari qanday bo'lgan?
3. Qadimgi Yunoniston ning tibbiyot maktablarining mashhur namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Gippokrat, uning asarlari va ilmiy tibbiyotga kiritgan yangiliklari va hozirgi tibbiyotda qo'llanilishi.
5. Gippokratning «Havolar, suvlar va joylar» nomli kitobining asosiy mazmuni kanday?
6. Gippokratning «Gippokrat tuplami» nomli kitobining asosiy mazmuni kanday?
7. Gippokratning qanday mashhur asarlarini bilasiz?
8. Gippokratning asosiy davolash tamoyillarini aytib bering?
9. Gippokrat insonlarni tabiatiga ko'ra qanday toifalarga ajratadi?
10. Galen tibbiyoti va uning asarlari jahon tibbiyotiga qo'shgan munosib hissalari.
11. Galenning qanday mashhur asarlarini bilasiz?
12. Galenning «Odam tanasi qismlarining ahamiyati» nomli kitobining asosiy mazmuni qanday?

8. Test savollari.

Savollar	Javob variantlari
1. Gippokratning shifokor ahloq-	A) «Aforizmlar».

odobiga atalgan asarining nomini ko'rsating?	B) «Prognostika» (bashorat ilmi). V) «Havo, suv va joy haqida». G) «Epidemiyalar». D) «Mijozlar haqida».
2. Qadimiy Yunonistonda «Tib xudosi» deb atalmish kimsaning ismini ko'rsating?	A) Asklepiy. B) Apollon. V) Gippokrat. G) Aristotel. D) Galen.
3. Gippokratdan bizgacha etib kelgan asarlarning sonini ko'rsating?	A) 70. B) 52. V) 112. G) 205. D) 404.
4. Galenga xos yanglish g'oyani ko'rsating?	A) Erkakning o'ng 12-qobirg'asidan ayol kishi yaratilgan. B) Yurakning chap qorinchasidan jon saqlanadi, shuning uchun uning devorlari qalin bo'lib, muvozanatni saqlaydi. V) Qon jigarda ishlab chiqariladi, yurakka utadi va unda pnevma bilan aralashib, tanaga eyilib, shimilib ketadi. G) Odam tanasi 4 qismdan tarkib topgan – havo, suv, er va olovdan. D) Miya yurakni sovutib turadigan suyuqlik ajratib turuvchi kata bezdir.
5. Galenning shox asari nomini ko'rsating?	A) «Odam tanasining a'zolarini foydasi haqida» . B) «Tabobat haqida». V) «Tib mahorati qonunlari». G) «Odam tanasining to'zi lishi haqida».
6. Alkmeon va Diogenlar Qadimgi Yunoniston ning qaysi tibbiyot maktabining vakili edilar?	A) Kroton maktabi. B) Knidos maktabi. V) Kos maktabi. D) Asklepiy maktabi.

7. Gippokrat Qadimgi Yunoniston ning qaysi tibbiyot maktabining vakili edi?	A) Kroton maktabi. B) Knidos maktabi. V) Kos maktabi. D) Asklepiy maktabi.
8. Korneliy Tselsning shox asari nomini ko'rsating?	A) «Tabobat haqida». B) «Artes». V) «Epidemiyalar». G) «Aforizmlar».
9. Davolash printsiplarida Asklepiad qanday tamoyillarga amal qilgan?	A) Bemorni sekin davolash kerak. B) Bemorni tez va ishonarli davolash kerak. V) Bemorni ishonarli, tez va azob bermay davolash kerak. G) Bemorni sekin va azob bermay davolash kerak.
10. Gippokrat nechta davolash printsiplarini ishlab chiqdi?	A) 2 ta. B) 4 ta. V) 3 ta. G) 5 ta.

9. Adabiyotlar

1. Borodulin F.R. «Istoriya meditsini». Sbornik lektsiy. Moskva, «Meditsina», 1961.
2. Zabludovskiy P.E. i dr. «Istoriya meditsini». Moskva, Meditsina, 1981. 261 str.
3. Qodirov A.A. «Tibbiyot tarixi» darsligi. Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 1993, 272 bet.
4. Sorokina T.S. «Istoriya meditsini». Moskva, «Patsis», 1994, 212 bet.
5. Zabludovskiy P.E. «Istoriya meditsini». Moskva, Meditsina, 1998, 113 str.
6. Marchukova S.N. «Meditsina v zerkaie istorii», Moskva, Meditsina, 2003. 290 str.
7. Qodirov A.A. «Tibbiyot tarixi» darsligi. Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 2004, 280 bet.